



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha  
va maktab ta'limi bo'limi  
tasarrufidagi

\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
\_\_\_\_\_ning

20\_\_-20\_\_-o'quv yili 5-sinf  
o'zbek tili fanidan 1-chorak uchun

**DARS**

**ISHLANMALARI**

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili 5-sinf o‘zbek tili fanidan 1-chorak uchun taqvim mavzu rejasi**

<b>№</b>	<b>O‘tiladigan mavzular rejasi</b>	<b>Nazariy soat</b>	<b>Dars o‘tkazish muddati</b>	<b>Dars o‘tkazilgan sana</b>
1.	Mo‘jizalar yurti.(Loyiha ishi mavzusini baholash va e‘lon qilish)	1		
2.	Yosh kitobxon	1		
3.	Katta maqsadlar	1		
4.	Hukmdor bolalar	1		
5.	Faqat g‘alaba	1		
6.	Toshkent - televideniyaning vatani	1		
7.	Uch karra rekord sohibi	1		
8.	O‘zbekistonlik alpinist	1		
9.	O‘zbekistonlik	1		
10.	Takrorlash	1		
11.	<b>1-BSB. (20 ball) Topshiriqli diktant</b>	1		
12.	Qizlar akademiyasi	1		
13.	Respublika bolalar kutubxonasi	1		
14.	Markaziy Osiyoda yagona	1		
15.	Andijon polkasi	1		
16.	Chanqovuz	1		
17.	Takrorlash	1		
18.	<b>2-BSB. (30 ball) Loyiha ishi taqdimoti</b>	1		
19.	Sangardak sharsharasi	1		
20.	Nefrit ko‘li	1		
21.	Mador somsa	1		
22.	O‘zbek bog‘boni	1		
23.	Qurut	1		
24.	Adabiy o‘qish (Abdulla Avloniy hayoti va ijodi)	1		
25.	Takrorlash	1		
26.	<b>1-CHSB. (40 ball)</b>	1		
27.	Mustahkamlash	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Mo‘jizalar yurti.(Loyiha ishi mavzusini baholash va e‘lon qilish)**

**Maqsadlar:**

- a) ta‘limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, o‘zbek tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.
- b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.
- d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

**Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:**

**Og‘zaki nutq:** atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

**Yozma nutq: bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.**

**Tinglab tushunish:** tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** o‘quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II.Yangi mavzu bayoni:**



“Yangi O‘zbekiston” bog‘i – O‘zbekistonning eng katta va eng go‘zal bog‘laridan biri. U mamlakatimiz istiqloлга erishganining 30 yilligi munosabati bilan barpo etilgan. Bog‘ning markazida Mustaqillik monumenti qad rostlagan. Bu majmua O‘zbekistonning 3 ming yillik tarixini, ajdodlarimizning buyuk ishlarini O‘zbekistonning yangi qiyofasini o‘zida mujassam etgan.

Umida: Akajon, “Yangi O‘zbekiston” bog‘i juda chiroyli va katta ekan-a?

Jasur: Ha, bu yer 104 gektar joyni egallagan.

Umida: Siz buni qayerdan bilasiz?

Jasur: Ustozimiz aytganlar.

Umida: Ustozingiz Humo qushi haqida ham so‘zlab berganlarmi?

Jasur: Ha, Humo qushi – ozodlik ramzi. U Mustaqillik monumentining yuqori qismiga o‘rnatilgan. Monumentning balandligi 60 metr.

Umida: Akajon, meni o‘sha yerga olib boring.

Jasur: Albatta, boramiz. Sen u yerda ko‘p ma’lumotlarni bilib olasan.

Umida: Qani, ketdik!



### 3. Gapiring. To'g'ri / noto'g'ri



1	Mustaqillik monumenti "Yangi O'zbekiston" bog'ida qad rostlagan.	*	*
2	"Yangi O'zbekiston" bog'i Namanganda joylashgan.	*	*
3	"Yangi O'zbekiston" bog'ining ko'rinishi do'ppini eslatadi.	*	*
4	Mustaqillik monumentining balandligi 20 qavatli bino bilan baravar.	*	*
5	Mustaqillik monumentida laylak tasvirlangan.	*	*

### III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. "Yangi O'zbekiston" bog'i qachon barpo etilgan?

2. Bog' markazida qanday monument bor?

3. Humo qushi nimaning ramzi?

4. Siz "Yangi O'zbekiston" bog'iga borgan bo'lsangiz, u yerda nimalarni tomosha qilgansiz?

**IV. O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**V. Uyga vazifani e'lon qilish:** Davlat ramzlarini (bayroq va gerb) chizing. Ular haqida ma'lumot yozib keling.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Yosh kitobxon**

**Maqsadlar:**

- a) ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, o'zbek tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.
- b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.
- d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

**Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:**

**Og'zaki nutq:** atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

**Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.**

**Tinglab tushunish:** tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II.Yangi mavzu bayoni:**

### Kelasi zamon maqsad fe'li: -moqchi

aytmoq+moqchi+...		Bo'lishsiz	So'roq	Bo'lishsiz-so'roq
Men	aytmoqchiman	aytmoqchi emasman	aytmoqchimanmi?	aytmoqchi emasmanmi?
Sen	aytmoqchisan	aytmoqchi emassan	aytmoqchimisan?	aytmoqchi emasmisan?
U	aytmoqchi	aytmoqchi emas	aytmoqchimi?	aytmoqchi emasmi?
Biz	aytmoqchimiz	aytmoqchi emasmiz	aytmoqchimizmi?	aytmoqchi emasmizmi?
Siz	aytmoqchisiz	aytmoqchi emassiz	aytmoqchimisiz?	aytmoqchi emasmisiz?
Ular	aytmoqchilar	aytmoqchi emaslar	aytmoqchilarmi?	aytmoqchi emaslarimi?

Gaplarni namunadagidek davom ettiring.

**Namuna:**

*Sen qaysi kasbni (tanlamoq) – Sen qaysi kasbni tanlamoqchisan?*

1. Sen qaysi kasbni (tanlamoq)?
2. Biz maktab hovlisidagi xazonlarni (to'plamoq).
3. Akmal Azizani Toshkent politexnika muzeyiga hech qachon (olib bormaslik).
4. Men xalqaro festivallarda (qatnashmoq).
5. O'quvchilar "Yosh kitobxon" tanlovida (ishtirok etmaslik)?
6. Siz O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini qachon (o'qimoq)?

Akmal: Aziza, qaysi kitobni o'qiyapsan?

Aziza: Anvar Obidjonning "Oltin yurakli avtobola" asarini o'qiyapman.

Akmal: Bu asar darslikda bor ekanmi?

Aziza: Yo'q. Men "Yosh kitobxon" tanlovida

qatnashish uchun o'qiyapman.

Akmal: Men bunaqa tanlov haqida eshitmagan ekanman.

Aziza: Ustozimiz bizni undan xabardor qildi.

Akmal: Juda qiziq ekan. Menga ham tanlov haqida aytib ber.

Aziza: Kel, yaxshisi, o'zimiz internetdan o'qib olamiz.

Respublikamizda har yili "Yosh kitobxon" tanlovi o'tkazilmoqda. U kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish uchun tashkil qilingan. Tanlovda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan kitobxonlar qatnasha oladilar. Ishtirokchilar O'zbekiston fuqarosi bo'lishlari shart. Ularning tili, dini, millati muhim emas. Ishtirokchilar uch toifaga bo'linadilar: 10 – 14 yoshlilar, 15 – 19 yoshlilar va 20 – 30 yoshlilar. Tanlov dastlab tuman, shahar va viloyat bosqichlarida o'tkaziladi. Har bir viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan bittadan g'olib tanlab olinadi. Ular musobaqaning respublika miqyosidagi final bosqichida bellashadilar. Birinchi o'rin sohibi Prezident sovg'asi sifatida yengil avtomobilga ega bo'ladi.

Akmal: Men ham tanlovga ariza topshirmoqchiman.

Aziza: Avtomobil yutib olmoqchimisan?

Akmal: Albatta, men ota-onamni xursand qilmoqchiman.

Berilgan ma'lumotlar asosida namunadagidek gaplar tuzing.



Namuna:

2018-yilda samarqandlik Mahliyo O'roqova "Yosh kitobxon" tanlovida g'olib bo'lgan.



2018-yil  
Mahliyo  
O'roqova  
Samarqand



2019-yil  
Otabek  
Eshpo'latov  
Toshkent v.



2021-yil  
Muhammadfozil  
Ismoilov  
Farg'ona



2022-yil  
Muxlisa  
Nasimova  
Buxoro



2023-yil  
Aziza  
Ibrohimova  
Navoiy

### III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Siz "Yosh kitobxon" tanlovi haqida nimalarni bilasiz?

**IV. O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**V. Uyga vazifani e'lon qilish:** Qatnashmoq, g'olib bo'lmoq, yutib olmoq, ariza topshirmoq, ega bo'lmoq birliklari ishtirokida gaplar tuzing.

O'IBDO': \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## *Zokirjon Admin bilan*

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**51 listdan iborat 5-sinf o'zbek tili fanidan I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To'lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**